

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

Nemis tili xorijiy til sifatida darsliklarining sifatini tekshirish haqida .....	247
<b>S.Z.Yo'Idoshev</b>	
Sport faoliyati yo'naliishi talabalariga valeologiya fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari .....	251
<b>I.O.Umarov</b>	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quv-jangovar sifatlarni rivojlantirishning ta'lim texnologiyasi .....	256
<b>Sh.M.Bazarbayeva</b>	
Yettisuv viloyatida o'lat epidemiyasiga qarshi kurash siyosati (1900-1910-yillar).....	264
<b>O.X.Mahamadjonova</b>	
Bolalar folkloriga oid o'n ikki cho'p va lapar o'yinlari tavsifi va ta'rifiga doir .....	268
<b>G.A.Donisheva</b>	
Tarixiy jihatdan til leksikasining o'rganilish darajasi (Oybekning Navoiy romani misolida) .....	273
<b>L.A.Xaitov</b>	
Hakim termiziy merosida inson vujudi (borlig'i) va ruhiy uzviyiligi, inson o'zligi (nafsi) muammosi .....	276
<b>Sh.S.Kodirova</b>	
Teaching English language to geology students .....	280
<b>S.S.Xojiyeva</b>	
Maktab kimyo darslarida innovatsion metodlardan foydalanish .....	283
<b>F.I.Sharipova</b>	
Developing reading comprehension at future nurses .....	288
<b>U.B.Usmonova</b>	
Sarlavhalar publitsistik matnning muhim qismi .....	294
<b>K.X.Авазов</b>	
Региональное и международное сотрудничество в целях обеспечения безопасности, стабильности в Центрально-Азиатском регионе .....	297
<b>A.N.Qosimov</b>	
Sport vositasida o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash va g'urur-iftixon tuyg'usini shakllantirishning pedagogik zarurati .....	303
<b>A.T.Nishonov</b>	
OTM talabalarida axborot oqimini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik jihatlari .....	310
<b>M.X.Tillavoldiyeva</b>	
Raqamlı texnologiyalar va ijtimoiy taraqqiyot o'rtaqidagi aloqadorlik muammolari .....	314
<b>U.D.Xudoyorov</b>	
Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi miqdor va sifat ko'rsatkichlarining xususiyatlari.....	318
<b>S.U.Allayarov</b>	
O'quvchilar lug'at boyligini oshirishning lingvo-pedagogik xususiyatlari.....	325
<b>Ch.T.Qurbanova</b>	
Tabiiy geografiya va geoekologiyada GAT texnologiyalaridan foydalanish.....	329
<b>Z.A.Kendjaeva</b>	
Ilk, jahon dinlari va falsafiy qarashlarda shukronalikka munosobat.....	333
<b>L.S.Sultonova</b>	
Milliy qadriyatlarning innovatsion taraqqiyot talablari asosida rivojlantirish .....	338
<b>Sh.T.Temirov</b>	
Mir Muhammad Siddiq Hashmat shaxsiy kutubxonasining Buxoro ilmiy-adabiy muhitidagi o'rni.....	341
<b>S.X.Kaxxarov</b>	
Yoshlarda harbiy vatanparvarlik kompetensiyalarini shakllantirishda harbiy madaniyat omili.....	346
<b>A.R.Jo'rayev</b>	
Minnatdorchilik bildirish nutqiy janri verbal, noverbal va lingvistik atributlarining o'ziga xosligi .....	351
<b>M.C.Мухамедова</b>	
Роль Музеев Узбекистана в жизни общества (начало XX века).....	356
<b>G.J.Tulenova</b>	
On the issue of implementation of projects on the development and practical	



УО'К: 93(94).930.2

**YETTISUV VILOYATIDA O'LAT EPIDEMIYASIGA QARSHI KURASH SIYOSATI  
(1900-1910-YILLAR)**

**ПОЛИТИКА БОРЬБЫ С ЭПИДЕМИЕЙ ЧУМЫ В РАЙОНЕ ЙЕТТИСУВ  
(1900-1910-Е ГТ.)**

**POLICY ON CONTROL OF PLAGUE EPIDEMIC IN YETTISUV REGION  
(1900-1910 S)**

**Bazarbayeva Shohsanam Muratovna**  
Perfect universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Yettisuv viloyatida XX-asr boshlarida veterinariya siyosati, chorva mollari orasida tarqalgan yuqimli kasalliklar (ayniqsa o'lat kasalli), veterinar shifokor va veterinar feldsherlarning faoliyatları yoritib berilgan. Yettisuv viloyatida Sirdaryo, Farg'ona, Samarkand, Kaspiyorti viloyatlariga qaraganda veterinariya xizmati avvalroq yo'ilga qo'yilgan edi. Mazkur viloyatda 1897-yilda chorva mollari o'latiga qarshi kurash olib borila boshladi, dastlabki ikki yilda epizootiyaga qarshi ma'lumotlar to'plan bo'lib, 1899-yilda viloyatda o'latga qarshi kurash olib borilgan. Ammo jamiyatda olib borilgan veterinariya tadbirleri foydasiz ekanligi, aholiga moliyaviy zarar keltirilishi haqida fikrlar aytila boshlagan. Mutahassis bo'limgan kishilar veterinar shifokorlar o'z kuchlarini kasallikkha chalingan chorva mollarini o'dirish yo'li bilan o'lat epizootiyasiga qarshi kurashiyotganidan norozi bo'ldilar, hamda mazkur kasallikni davolishni va kasallikni oldini olish tadbirlarini taklif qildi, ular hayvonlarni mis kporosi bilan davolashni, shuningdek sog'lom hayvonlar o'latdan o'lgan hayvonlarni yalashni xatto kasallikkha chalingan hayvonlarni shamolga qo'yishga taklif qilishgan edi. Mutaxassislар esa Yettisuv tog'laridagi yovvoyi hayvonlar o'lat kasalligiga kavush qaytaruvchi hayvonlardan uy hayvonlariga yoz paytida yaylovlarda yuqishini hisobga olib, yaylovlarga boqishga olib chiqiladigan uy hayvonlarini o'latga qarshi emlash usulini taklif qiladi. Bu masalalarga maqolada kengroq to'xtalib o'tamiz.

**Аннотация**

В данной статье освещены ветеринарная политика, распространение инфекционных заболеваний среди скота (особенно чумы), деятельность ветеринарных врачей и ветеринарных фельдшеров в районе Йеттисув в начале XX века. Ветеринарная служба в районе Йеттисув была создана раньше, чем в Сырдарьинской, Ферганской, Самаркандской, Закаспийской областях. В этом районе борьба с чумой крупного рогатого скота началась в 1897 г., в первые два года были собраны данные об эпизоотиях, а в 1899 г. в районе проводилась борьба с чумой. Однако люди стали говорить, что проводимые в обществе ветеринарные мероприятия бесполезны и наносят финансовый ущерб населению. Неспециалисты жаловались, что ветеринары используют свои усилия для борьбы с эпизоотиями чумы путем умерщвления зараженного скота, и предлагали лечебно-профилактические меры, включающие обработку животных медным порошком, а также предлагалось, чтобы здоровые животные вызывали мертвых животных и даже помещали больных животных в ветер. Специалисты предлагают метод вакцинации домашних животных, которых выгоняют на пастбища для выпаса, с учетом того, что дикие животные в горах Йеттисув заражаются чумой от устойчивых к чуме животных, находящихся на пастбищах в летний период. Подробнее об этих вопросах мы поговорим в статье.

**Abstract**

In this article, veterinary policy, infectious diseases spread among livestock (especially plague), activities of veterinary doctors and veterinary paramedics in Yettisuv region at the beginning of the 20th century are highlighted. Veterinary service was established earlier in Yettisuv region than in Syrdarya, Fergana, Samarkand, Transcaspian regions. In this region, the fight against cattle plague began in 1897, in the first two years, data on epizootics were collected, and in 1899, the fight against plague was carried out in the region. However, people began to say that the veterinary measures carried out in the society are useless and cause financial damage to the population. Non-specialists complained that veterinarians were using their efforts to combat plague epizootics by killing infected livestock, and proposed a treatment and prevention measure that included treating animals with copper powder. It was also suggested that healthy animals lick dead animals and even put diseased animals to the wind. Experts suggest a method of vaccinating domestic animals, which are brought to pastures to graze, taking into account the fact that wild animals in Yettisuv mountains are infected with plague from animals that are resistant to plague to domestic animals in the pastures during the summer. We will discuss these issues in more detail in the article.

**Kalit so'zlar:** Yettisuv viloyati, veterinariya siyosati, chorva mollari, veterinar shifokorlar, veterinar feldsherlar.

**Ключевые слова:** район Йеттисув, ветеринарная политика, животноводство, ветеринарные врачи, ветеринарные фельдшеры.

**Key words:** Yettisuv region, veterinary policy, livestock, veterinarians, veterinary paramedics.

## KIRISH

1870-yillarga qadar nafaqat Turkistonda Rossiyaning Yevropa qismida ham "Veterinar shifokor" so'zi ko'pchilikka, shuningdek, jamoat arboblariga ham ma'lum emas edi. Ammo chorva mollarining xalq xo'jaligiga katta zarar yetkazib o'lat kasalligidan nobit bo'lishi xalq xo'jaligiga hamda qo'shni davlatlar bilan chorva va chorva mahsulotlarining savdosining rivojlanishiga to'siq bo'lganiga, veterinariya xizmati kerak bo'lganini ko'rsatdi. Veterinar shifokorlar chorva mollari kasalligiga qarshi muvofaqqiyatli kurash olib bordilar. Veterinariya xizmatini yo'lga qo'yish iqtisod uchun zararli emas aksincha foydali ekanligi o'z tasdig'ini topdi. Shuning uchun Rossiyada chorva mollari epidemiysi tugagandan so'ng veterinariya xizmatini rivojlantirish zaruriyati paydo bo'ldi. [7, 39].

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Muammoga aloqador masalalar arxiv manbalari, matbuot materiallari va xorijlik olimlarning jumlidan P.Petkov [6.], A.Goryachkin [6.], V.A.Shchekin [1.], K.Agzamov [3.], I.Sklyar [3.] ning asarlari va tadqiqotlarida o'rganilganligini kuzatish mumkin. Ushbu olimlar o'z tadqiqotlarida chorva mollari orasida tarqalgan turli kasalliklar va ularning oldini olish borasida o'lkada amalga oshirilgan islohotlar va chora-tadbirlar borasida ma'lumotlar keltirishgan.

Maqolada o'rganilayotgan muammo, ya'nı chorva mollari orasida tez-tez uchraydigan o'lat va boshqa yuqimli kasalliklar davlat va kishilarning iqtisodiy ahvoliga ta'siriga oida qarashlar ilmiy tadqiqotning siyosiy va qiyosiy tahlil, ilmiylik va xolislik metodlari asosida yoritilishiga e'tibor qaratildi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Turkistonda veterinariya xizmatini yo'lga qo'yish dastlab Sirdaryo viloyati harbiy gubernatiri general N.I. Grodekov tomonidan ko'tarilgan edi. 1892-yilda N.I. Grodekov Sirdaryo viloyatida veterinariya nazoratini tashkil etish va unga shtat birliklarini belgilash to'g'risida loyihani Turkiston general-gubernatorligi sovetiga taqdim etgan. Turkiston general-gubernatorligi soveti va Okrug harbiy-tibbiy boshqarmasi mazkur loyihani muhokama qilib, loyihada aytilgan fikrlarga qo'shilishdi, ammo, mablag' yetishmasligi tufayli loyiha jiddiy to'siqlarga uchragan. Dastlab shtat birliklari qisqartirilib ular oldiga yetarli mablag' bo'lmasada veterinariya xizmatini to'g'ri yo'lga qo'yish vazifasi qo'yilgan edi. [7,45].

Yettisuv viloyatida Sirdaryo, Farg'ona, Samarkand, Kaspiyorti viloyatlariga qaraganda veterinariya xizmati avvalroq yo'lga qo'yilgan edi. Mazkur viloyatda 1897-yilda chorva mollari o'latiga qarshi kurash olib borila boshladi, dastlabki ikki yilda epizootiyaga qarshi ma'lumotlar to'plan bo'lib, 1899-yilda viloyatda o'latga qarshi kurash olib borilgan. Ammo jamiyatda olib borilgan veterinariya tadbirlari foydasiz ekanligi, aholiga moliyaviy zarar keltirilishi haqida fikrlar aytila boshladi. Mutahassis bo'Imagan kishilar veterinar shifokorlar o'z kuchlarini kasallikka chalingan chorva mollarini o'ldirish yo'lli bilan o'lat epizootiyasiga qarshi kurashiyotganidan norozi bo'ldilar, hamda mazkur kasallikni davolishni va kasallikni oldini olish tadbirlarini taklif qildi, ular hayvonlarni mis kporosi bilan davolashni, shuningdek, sog'lom hayvonlar o'latdan o'lgan hayvonlarni yalahnni xatto kasallikka chalingan hayvonlarni shamolga qo'yishga taklif qilishgan edi. Mutaxassislar esa Yettisuv tog'laridagi yovvoyi hayvonlar o'lat kasalligiga kavush qaytaruvchi hayvonlardan uy hayvonlariga yoz paytida yaylovlarda yuqishini hisobga olib, yaylovlarga boqishga olib chiqiladigan uy hayvonlarini o'latga qarshi emlash usulini taklif qiladi, ammo bu millionlab mablag'ni talab qilar edi. Yettisuv viloyatida chorva mollari o'latiga qarshi kurash shu holatda 1907-yil 8-fevralgacha davom etdi. Shuning uchun Turkiston general-gubernatiligi veterinariya qismiga boshliq qilib tayinlangan F.E. Kuritsinga Yettisuvda o'latga qarshi kurash natijasiz bo'lganligining sabablari o'rganish topshiradi va F.E. Kuritsin tomonidan o'tkazilgan tadtiqotning ko'rsatishicha tog'dagi yaylovlar chorva mollari o'latinining asosiy manbai ekanligi aniqlangan. Ko'chmanchi chorvadorlarning mollari yaylovlarda o'lat kasalligi yuqtirgan. O'troq aholining chorva mollari orasida ham keng tarqalib ketgan. [7, 87].

Bu chorva mollari kasalliklari keltirgan iqtisodiy zararlar sababli, Yettisuv viloyatining asosiy boyligi bo'lgan chorvachilikga katta ahamiyat berila boshlangan, bunga misol tariqasida, 1910-yilda Yettisuvga Graf Palen taftish ishlari, harbiy gubernatorlik va fuqarolik ma'muriyati veterinariya boshqarmasi boshlig'i, veterinar shifokorning xizmatlarini aytish mumkin. [7, 98].

Yettisuv viloyatida veterinariya ishlariiga 1904-yil 16-martdan boshlab, viloyatga veterinariya ishlariiga boshlilik qilgan, harbiy gubernatorga va Turkiston harbiy okrok harbiy veterinariya inspektorga bevosita bo'ysingan (1905-yildagi shifokorlar nizomining 489, 519, 520 moddariga asosan). Uning vazifalariga quyidagilar kirgan: 1) chorvalar o'llimining oldini olish uchun tadbirlar; 2) veterinariya ishlari ustidan umumiylazorat; [3, 479.], 3) veterinariya bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish va viloyat boshqarmasida maruza qilish; 4) epoozitiya qarshi kurash tadbirlariga rahbarlik qilish uchun viloyat bo'y lab safar qilish; 5) Yettisuvdagagi kazak qo'shinlari va viloyatda joylashgan boshqa harbiy qismlar harbiy veterinariya bo'limlariga rahbarlik qilish. [5, 480.]

Viloyatdagi veterinariya xodimlari faoliyati bo'yicha 3 ta kategoriyalarga bo'lingan: 1) aholining veterinarian ehtiyojlari uchun viloyat veterinarian shifokori (shifokorlik nizomining 522, 523-moddalari); 2) ichki ishlar vazirligining punkt veterinarian shifokorları – sotiladigan chorva va go'sht mahsulotlarini nazorat qilish uchun (1900-yil 12-iyulda davlat kengashining qaror); 3) Ichki ishlar vazirligi tomonidan o'latga qarshi viloyatga safarga jo'natilgan vaqtincha veterinariya xodimlar. Barcha veterinarian amaldorlari viloyat veterinariya inspektorlariga bo'ysingan (shifokorlik nizomining 520-moddasi). [5, 481.]

Viloyatda veterinariya ishining tashkil etilishi qonuniy jihatdan yuqorida aytilgani kabi bo'lishi lozim edi. 1910-yilda senator Palen taftish komissiyasining faoliyati natijasida mazkur viloyatda veterinariya ishining tashkil etilishi umuman boshqacha, ya'ni qonunga muvfiq oshiriliyatgani ma'lum bo'lgan.

Veterinariya boshqarmaning o'latga qarshi kurashda mahalliy organlar va fuqarolik ma'muriyati veterinariya boshqarmasi o'rtaida vazifalarni taqsimlash ishlariaga nato'g'ri aralashuvvgacha, veterinarian ishlarini tashkil etish samarali olib borilganligini ko'rish mumkin, buning natijasida o'lat epooziyatiyasiga qarshi kurash yaxshi olib borilgan va o'latga qarshi kurashuvchi punktlar soni 3 taga yetkazilgan, hamda, kasalliklar o'choqlarida chorva mollari o'limi kamaygan. 1906-1907-yillardagi kasalliklar tarqalishi va undan chorva mollarining o'limini taqqoslash shuni ko'rsatadiki, 1907-yilda ularning soni 394 taga yetgan, ammo chorva mollarining o'latdan vafot etishi 10,6 foizdan 10,2 foizga tushgan, 1908-yil mayiga kelib esa o'lim holati 2,9 foizga tushgan. 1906 yilda punktlar 218 ta bo'lgan. Shunga qaramasdan veterinarian boshqarmasi boshlig'i, Ichki ishlar vazirligi veterinarian boshqarmasiga hamda Turkiston general-gubernatoriga iltimosnomasi bilan kirgan va harbiy tashkilotning o'latga qarshi kurashdagi harakatini samarasiz harakatini qayt etgan holda, Yettisuv viloyatida o'latga qarshi tadbirlarga unga yuklashni so'raydi. Ichki ishlar vazirligi veterinarian boshqarmasi uning fikrlarini o'latga qarshi kurashda foydali deb hisoblagan holda, hatto, viloyat harbiy ma'muriyati bilan kelishmasdan Ichki ishlar vaziridan ruhsat berishini so'ragan edi. [5, 481.]

Bunga muofiq 1908-yil 19-fevralda Turkiston general-gubernatori Ichki ishlar vazirligining qattiq talabiga ko'ra Yettisuv viloyatiga fuqarolik ma'muriyati veterinarian boshqarmasi boshlig'i o'latga qarshi kurashga bevosida rahbarlik qilish uchun jo'natilgan.

Shunday qilib, viloyatida veterinarianiga umuman bo'ysunmagan mustaqil faoliyat yurituvchi xizmat safarigaga jo'nalgan veterinarian shifokorlar tashkiloti paydo bo'lgan edi. Turkiston o'lkasida 2 ta parallel shaklda ishlovchi veterinarian tashkilotlari mavjud bo'lib, ular biri qonunan harbiy vazir va harbiy gubernatorlarga bo'ysingan, boshqasi esa amalda epizootiyaga qarshi kurashuvchan tashkilot general-gubernator qoshidagi veterinarian boshqarmasiga va Ichki ishlar vazirligiga bo'ysingan. Mazkur tashkilotlar birdamlikda faoliyat yuritishmagan, aslida esa chorva epizootiyasiga qarshi kurashda 2 ta xo'jayin bo'lishi mumkin emas edi. Yettisuv viloyatidagi ushbu holat viloyatdagi sharoit bilan yaxshi tanish bo'lgan viloyat harbiy gubernatorligiga qarashli bo'lgan veterinarianlarning amalda o'lat epizootiyasiga qarshi kurashda chetda qolishiga olib kelgan.

Yettisuv viloyati veterinarian xizmatiga har yili "Земство" soliqlaridan veterinarian shifokorları va feldsherlari hamda uezd veterinarian dorixoniali uchun 15040 rubl, chorva podalari soliqlaridan veterinarian inspektori uchun 3018 rubl, chegara chiziqlarini qo'ruqlovchi veterinarian xodimga 3264 rubl, 6 ta veterinarian punkt xodimlari uchun 13805 rubl, jami 49387 rubldan oshiq mablag'

## ILMIY AXBOROT

ajratilgan bo'lib jami 1 yilda veterinar xodimlar uchun 64427 rubldan oshiq mablag' sarflangan. [5, 482.].

O'latga qarshi kurash va unga ishtirok etgan veterinariya xodimlar ta'minoti uchun zaruratdan kelib chiqqan xolda mablag' ajratilgan, masalan, 1905-1908-yillarda quyidagicha mablag' ajratilgan 1905-yilda 32121 rubl 96 kopeyk, 1906-yilda 185380 rubl 33 kopeyk, 1907 yilda 306386 rubl 50 kopeyk, 1908-yil 1- yanvardan 1-sentyabrgacha 222291 rubl 92 kopeyk jami 746480 rubl 71 kopeyk ajratilgan. Ushbu harajat chorva podasidan tushgan soliqlardan yuqori bo'lgan, jumladan 1905-1907-yillarda 280 ming rubl shunday soliq to'plangan edi.

Viloyatda 42 nafar veterinariya xodimlari faoliyat yuritgan bo'lsa, ular inspektor 6 ta nafar uezd, 7 nafar chegara va 6 nafar punkt veterinar shifokorlar bo'lib, punkt veterinar shifokorlariga bir nafardan veterinar feldsher va chegara chiziqlaridagi veterinar shifokorlarga 3 nafar feldsher yordam bergan. [3, 482.].

**XULOSA**

Xulosa sifatida aytish lozimki, Yettisuv viloyatining asosiy boyligi bo'lgan chorvachilikga katta ahamiyat berilib, buni veterinariya oid olib borilgan siyosat, chorva mollari orasida tarqalgan yuqimli kasalliklaring oldini olish va davolash, veterinar shifokor va veterinar feldsherlarning faoliyatları uchun sharoit va mablag'lar ajratilganidan ko'rishimiz mumkin.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Schekin V.A. Chorvachilik. Maxsus qism. (2-nashr). – Toshkent: O'quvchi, 1968. – 178 b.
2. Юлдашев А. Аграрные отношения в Туркестане. – Ташкент: 1969. – 276 с.
3. Аззамов К., Скляр И. Племенное, молочное скотоводство в совхозе "Чиназ". – Ташкент: Узбекистан, 1965. – 490 с.
4. Никитин И.Н. Исторические этапы формирования, развития и совершенствования государственной ветеринарной службы России. – Казан: 2019. – С.5.
5. Пален К.К. Земское хозяйство. – Санкт-Петербург: 1910. – 145 с.
6. Петков П., Горячkin A. Развитие животноводства в Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан. – 192 с.
7. Туркестанский ведомости, № 8. 1904. – 87-99 cc.